



## Boshlang'ich Sinf O'quvchilari Texnik Ijodkorlik Qobiliyatini Rivojlantirish Metodlari

Karimov Xamidbek Otaxanovich, Urganch davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Ibadullayev Sobirjon Egamberganovich, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va uquvlari darajasi murakkab masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan modulli-texnik eksperiment, morfologik tahlil, aqliy hujum, muammoli vaziyat metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning ilmiy, texnikaviy, badiiy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish usullarining ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** uzluksiz ta'lim, ijodiy qobiliyat, texnika, morfologik tahlil, model, detal, konstruktor, texnologik, tashkiliy-texnik topshiriqlar.

## Methods Of Developing Technical Creativity Of Primary School Students

**Karimov Hamidbek Otakhanovich**

Senior Lecturer, Department of Fine Arts and Engineering Graphics, UrSU

Ibadullayev Sobirjon Egamberganovich, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasida o'qituvchisi

**Annotation:** This article describes the role and importance of ways to develop scientific, technical, artistic creativity through the use of new pedagogical technologies such as modular-technical experiments, morphological analysis, brainstorming, problem situations aimed at developing the level of knowledge, skills and abilities of primary school students.

**Keywords:** continuing education, creative ability, technique, morphological analysis, model, detail, constructor, technological, organizational and technical tasks

## Методы Развития Технического Творчества Учащихся Начальной Школы

**Каримов Хамидбек Отаханович**

Старший преподаватель кафедры изобразительного искусства и инженерной графики УрГУ

Ibadullayev Sobirjon Egamberganovich, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasida o'qituvchisi



**Аннотация:** В статье подчеркивается важность методов развития научного, технического, художественного творчества студентов за счет использования модульно-технического эксперимента, морфологического анализа, мозгового штурма, методов решения проблем, направленных на решение сложных задач на уровне знаний, умений и навыков способности учащихся начальных классов. .

**Ключевые слова:** непрерывное образование, творческие способности, методика, морфологический анализ, модель, деталь, конструктор, технологические, организационные и технические задачи.

Har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va xalqining turmush tarzi ko'p jihatdan undagi ijodkorlar imkoniyati darajasi bilan belgilanadi. Chunki, xalqi ijodkor bo'lgan mamlakat barcha sohalarida doimo ilg'or bo'ladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz rahbariyati ta'lim tizimini tubdan isloh qilish orqali yoshlarni faol ijodkorlik ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratayapti, ijodkor yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

Bu siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning ilmiy, texnikaviy, badiiy ijodkorligi qobiliyatlarini rivojlantirishga oid barcha ishlarni samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Asrimiz texnika asri bo'lib tarixga kirayotgani barchaga ayon, chunki qaysi sohani olmaylik texnika-jamiyatning bosh ishlab chiqarish kuchi hisoblanadi. SHu ma'noda, aytish mumkinki, vatanimiz kelajagi va taqdiri uning oltmish foizdan ko'proq yoshlarining texnik ijodkorlik qobiliyatlarini davr talabiga javob beradigan darajada rivojlantirishga bevosita bog'liq.

Texnik qobiliyat yoki to'liqroq qilib aytganda texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish-uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'lganligi uchun bu ishni bolalarning maktabga kelgan birinchi kunidanoq boshlamoq kerak. Afsuski, hozirgacha boshlang'ich tasviriy san'at mashg'ulotlarida narsaning nusxasini tasvirlash, ko'paytirish yoki ta'mirlash, esda qolgan narsani tasvirlash metodi (reproduktiv) etakchi bo'lib kelmoqda.

Ana shunday faoliyatni hatto "bolalar ijodkorligi" deb talqin etiladi, aslida esa bu jarayon bolalarda ijodkorlik elementlarini to'liq rivojlantira olmaydi. Bu metodda bolalarning ijodkorlik imkoniyatlari to'liq namoyon bo'lmaydi, ularning mustaqil ishlashi, tashabbuskorligi kabi sifatleri rivojlanmaydi.

Buni quyidagicha izohlash o'rinli.

Birinchi sinflarda qog'ozdan qayiqcha yasash (*qayiqning kichraytirilgan maketi nusxasi*) o'rgatiladi. Bolalar buni qiziqib bajaradilar va ma'lum daraja (*o'z imkoniyatlariga ko'ra*) uddalaydilar ham. Ammo bu hali ularning texnik ijodkorligi qobiliyatini to'la rivojlantira olmaydi. Bor yo'g'i o'quvchilarning uquvi rivojlanadi xolos. Ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish hamisha muammoli vaziyatni vujudga keltirish va uni bartaraf etish yo'llarini topish bilangina amalga oshiriladi. Buning uchun o'qituvchi yuqoridagi vaziyatni bolalarning qog'ozdan tayyorlagan qayiqchasidan birini suvli idishga qo'yadi.

U dastlab suzib turadi va ma'lum vaqt o'tgach qog'oz suvni o'ziga shimib ho'llanish natijasida cho'kib qoladi. Ushbu hodisani bolalarga namoyish etib o'qituvchi ularga quyidagi muammoli savollar bilan murojaat qiladi. Qog'ozdan yasalgan qayiqcha suvda cho'kib



qolmasligi uchun nima qilish kerak?. Albatta birinchi sinf o'quvchilari bu savolga javob berishga qiynalishadi. Shunda o'qituvchi o'xshashidan foydalanish metodi orqali o'rdak va g'ozlarning suvda suzganda nega cho'kib ketmasligi sababini tushuntiradi.

Xuddi shu mashg'ulotda o'qituvchi bolalarga bir yo'la bir necha qatlamli qog'ozni qirqishda qaychini qaysi tomonga qiyshaytirish (*o'ngami yoki chapgami*) zarur degan savolni beradi. Muammoni hal qilish davomida o'quvchilarning texnikaga oid ijodkorlik qobiliyatlari oldin ta'kidlangan faqat nusxa ko'chirishdagiga nisbatan sezilarli rivojlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish bizningcha o'zida uchta turdagi faoliyatni mujassamlashi maqsadga muvofiq, unga: konstruktorlik, texnologik va tashkiliy-texnik faoliyatlar kiradi. Ana shu faoliyatlarga mos holda uchta tipdagi topshiriq (masala) shakllantiriladi. Bu masalalarning har biri ma'lum muammoli vaziyatni hal qilishni nazarda tutishi lozim.

Konstruktorlik topshiriqlari:

1. Buyumning ishonchli, turg'un va mustahkamligini yaxshilash;
2. Zararli salbiy oqibatlarni bartaraf qilish usullarini tanlash;
3. Detalning eng muvofiq soni, shakli, birlashtirilishini aniqlash;
4. Modelning qulay ishlashini ta'minlovchi o'zgartirishlar kiritish;
5. Buyum detallari va qismlarining o'lchamlarini saqlagan holda o'zgartirishlar kiritish;
6. Buyumning ta'sir doirasini qisqartirish yoki kengaytirish.


Texnologik topshiriqlar:

1. O'lchash va nazorat qilishning muvofiq usulini tanlash (o'lchov asboblarisiz to'rtburchak qog'ozdan kvadrat qanday hosil qilinadi);
2. Qiyin jarayonni tez, tejamkor bajaradigan moslamadan foydalanish (archani bezash uchun qog'ozdan sharik tayyorlash);
3. Xomashyoni tejaydigan texnologiyani tanlash (to'rtburchak qog'ozdan tez va tejamkorlik bilan to'rtta bir xil doira (aylana) qanday hosil qilinadi?);
4. O'z kuchingizni kam sarflaydigan texnologiyani tanlash;
5. Buyum sifatini yaxshilovchi va qiyin jarayonni soddalashtiruvchi texnologiyani tanlash.

Tashkiliy-texnik topshiriqlar:

1. Mehnatni (ishni) muvofiq tashkil qilish;
2. Ish joyini muvofiqlashtirish;
3. Moslama va uskunalardan foydalanish imkoniyatini oshirish;
4. Ishni bajarish usullarini takomillashtirish.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolar va tavsiyalar tahlili va o'tkazgan tajribalarimiz natijalariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari ichida o'xshashlikdan foydalanish metodi (usuli), aksini bajarib ko'rish, texnik ob'ektlarni birlashtirish, mahalliy sifatni oshirish usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va uquvlari darajasi murakkab masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan modulli-texnik eksperiment, morfologik tahlil, aqliy hujum va boshqa metodlardan foydalanishga etarli emas.



Aytilganlarga ba'zi misollar keltiramiz. Jumladan, o'xshashidan foydalanish usuliga o'quvchilarga oddiy shprints arining chaqishidagi o'xshashlikdan foydalanib ixtiro qilinganligini tushuntirish ma'qul.

Shuningdek aksini bajarish usuliga gugurtning yondiruvchi kallagini cho'pining bitta uchiga emas aksincha ikkinchi uchida ham bo'lishini ta'minlash bilan ikki baravar tejamkorlikka erishishni aytish. Birlashtirish usuliga oddiy bolg'aning ikkinchi tomonini mix sug'uradigan qilinganligi, uylarning qulfini ochadigan kalitning yuqori uchiga shishalar qopqog'ini ochadigan o'yiqcha qilinganligi ko'rsatiladi. Mahalliy sifatni oshirishga misol qilib pichoqlarning butun yuzasini emas faqat tig'ining o'tkirligini ta'minlash uchun toblab ishlov berish va boshqa ko'plab oddiy misollar keltiriladi.

Ammo so'z yuritilgan texnik ijodkorlik muammo va usullarini ham o'quvchilar texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun etarli deb bo'lmaydi. Qiyin to'ldiruvchi omil bu ijodkorlik faoliyatini ta'minlovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Quyida ularga to'xtalamiz.

1. Oldin o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarni yangi muammoli vaziyatga mustaqil ko'chirib qo'llash. Aytaylik katta magnit sirtiga po'lat qirindilar yopishib qoladi. Ularni qanday yig'ishtirib olish mumkin? Bu savolga o'quvchilar javob berishi uchun plastilinning xususiyatini bilishlari talab etiladi.

2. Tanish vaziyatda yangi muammoni ko'ra bilish va uni hal qilish. Bolalarning botinkasidagi bog'ichi uni echganda ko'pincha maxsus teshikchalarning yuqorigilaridan chiqib ketadi va qayta kiyayotganida noqulaylik (teshikdan bog'ichlarni har safar qaytadan o'tkazish) talab qiladi. Buni qanday bartaraf qilish mumkin? Oyoq erkin chiqadigan holatda bog'ichga chiroyli tugmacha qadaladi va u teshikdan o'tmasdan bog'ichning chiqib ketishining oldini oladi.

3. Ob'ekt (buyum) ning yangi vazifasini ko'ra bilish. Oddiy qalamdan qog'ozlarga teshik ochish, piyoladan aylana chizishda foydalanish, yarim yig'ilgan holatda elpig'ich yoyilganda echa shlyapa bo'ladigan buyumlar va hokazo.


4. Ob'ekt tarkibini to'g'ri tasavvur qilish. Bu ko'rsatkichning mohiyati shundaki, konstruksiyaning bitta detalini o'zgartirish boshqalarining ham o'zgarishiga olib keladi. Ko'zoynak konstruksiyasi detallarini yig'iladigan, ixcham, qulay qilib tayyorlash uni saqlaydigan g'ilofining ham o'zgarishiga olib keladi.

5. Muqobil yechimni izlash. Bu ko'rsatkich bir necha texnik yechimlar ichidan eng sodda, qulay variantini tanlashni nazarda tutadi.

6. Yangi ijobiy texnik yechimni topish uchun avvaldan ma'lum yechim usulini kombinatsiyalashtirish (yangi yechimda qo'llash);

Oldinlari ishlatilib kelingan idishda saqlanadigan suyuq elim (kley) o'rniga uni qo'ltiqqa surkaladigan reksonadan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish mazkur usullardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Chunki o'quv faoliyatidagi barcha jarayon birdek qiziqarli bo'lmaganligi sababli, bolalarda irodaviy diqqatni, faollikni asta-sekinlik bilan olib borish lozim bo'ladi. Boshlang'ich sinf hali moslashishlar davri ekanligini hisobga olgan holda, ularning ijodkorlik faoliyatiga alohida e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Aks holda esa, ba'zi murakkab ijodkorlik masalalar yechimi ularning qiziqishini so'ndirib qo'yishi mumkin.



---

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ta'lim to'g'risidagi Qonun (Barkamol avlod-O'zbekistoi taraqqiyotining poydevori). T., "Sharq" nashriyoti, 1997 yil.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. (Barkamol avlod-O'zbekisgon taraqqiyotining poydevori). T.. "Sharq" nashriyoti, 1997 yil.
3. R.A.Mavlonova va bosh. "Mehnat ta'lim metodikasi" T., "O'qituvchi" 1986 yil.
4. Shumilyevich N.M. "Qog'ozdan texnik modellar yasash" T. "O'qituvchi" 1989 yil.
5. "Ikkinchi sinfda darslarni taxminiy rejalashtirish". Toshkent RUMM 1993 y. 54-55- betl.
6. Kichkintoylarda tejamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish. (1-4 sinflarda mehnat darslari misolida qo'llanma) Toshkent, "O'qituvchi" 1998 yil.